

## TARJIMA JARAYONIDA YUZ BERADIGAN LINGVOKULTUROLOGIK MUAMMOLAR

**Hamida Sherqulova Obidjon qizi**

*ToshDO‘TAU talabasi*

*E-mail: obidjanovnass@gmail.com,*

*+99877-134-26-77*

**Annotatsiya:** *Tarjima mohiyatan madaniyatlararo yuz beruvchi jarayondir: so‘zlar nafaqat ma’no mazmunini, balki ma’lum bir madaniyatga xos bilimlarni, ijtimoiy qadriyatlarni va turli xalqlar dunyoqarashini ham o‘zida mujassam etadi. Lingvokulturologiya-til va milliy madaniyat kesishuvini o‘rganuvchi fan bo‘lib, tarjimada so‘zma-so‘z uslubni qo‘llash madaniy ma’noni to‘liq ifodalay olmasligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada bu soha tahlil qilinib, tarjimada uchraydigan asosiy lingvokulturologik muammolar (realiyalar, idiomalar, maqollar va intertekstual-madaniy ishoralar) tasniflanadi hamda tarjimonlar qo‘llaydigan amaliy usullar (izohlash, kalkalash, foreignizatsiya, dometikatsiya, transkripsiya usullaridan foydalanish, paratekstual tushuntirish) muhokama qilinadi. Tarjima jarayonidagi misollar turli strategik tanlovlarning ma’no va asarning qabul qilinishiga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini namoyon etadi. Yakuniy qismda esa tarjima amaliyotida qo‘llanishi tavsiya etilgan eng samarali yondashuvlar va tadqiqot yo‘nalishlari bayon etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvokulturologiya, madaniy ma’no, realiyalar, madaniyatlararo kommunikatsiya, domestikatsiya, foreignizatsiya.*

## LINGUOCULTUROLOGICAL ISSUES ARISING IN THE PROCESS OF TRANSLATION

**Abstract:** *Translation is an inherently intercultural act: words encode not only propositional content but also culture-specific knowledge, social values and worldview of different cultures. Linguoculturology-a discipline that investigates the intersection of language and national culture -exposes a class of translation problems where literal linguistic equivalence fails to transfer cultural meaning. This article surveys the field, identifies the main kinds of linguoculturological problems (realia, idioms, proverbs and intertextual –cultural references), and discusses practical strategies translators use (explicitation, calque, foreignization, domestication, transcription and paratextual explanation). Examples from translation practice demonstrate how different strategic*

*choices affect meaning and audience reception. The final section outlines the most effective approaches recommended for translation practice and highlights key research directions.*

**Keywords:** *linguoculturology, cultural meaning, realias, intercultural communication, domestication, foreignization.*

## Kirish

Lingvokulturologiya til orqali xalqning madaniy bilimi, qadriyatlari va dunyoqarashi qanday aks etishini o‘rganadi. Ushbu yo‘nalish vakillari xususan, V. A. Maslova va boshqa postsovet olimlar ko‘plab lingvistik birliklar madaniy ma’no xususiyatiga ega ekanligini va ularni to‘g‘ri tarjima qilishdan avval lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilish zarurligini ta’kidlashadi. Tarjima sohasida faqat leksik tenglikka tayanish yetarli emas. Tarjimon o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy kontekstda matnning pragmatik kuchi, madaniy ohangdorligi va kommunikativ ta’sirini saqlab qolish maqsadida turli ilmiy asoslangan strategiyalardan foydalanishi lozim.

### 1. Til va madaniyat

Biz so‘zlashuvda qo‘llanadigan mazkur til idrokimizni qay darajada shakllantiradi degan savolga ikki nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Birinchisi nominalistik nuqtayi nazar, ikkinchisi relativistik (nisbiy) nuqtayi nazardir. Nominalistik nuqtayi nazarga ko‘ra, bizning idrokimiz biz so‘zlashadigan maxsus bir til orqali shakllanmaydi. Til frkrning shunchaki tasodifiy tashqi shaklidir. Yani, barchamiz turli yo‘llar va turli tillar vositasida ifodalanadigan bir xil fikrlar qatoriga egamiz, . Demak, har qanday fikr har qanday til vositasida ifodalanishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, ulardan ayrimlari kamroq, ayrimlari ko‘proq so‘zlar vositasida qabul qilinishi mumkin. Har xil tillarning mavjudligi insonlarning turli fikrlar jarayoni yoki turfa tushunchali olamlarda yashashini anglatmaydi. Binobarin, daraxt fransuz tiltda arbre, ispan tilida arbol bo‘lishi mumkin, biroq biz daraxtni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilamiz.

Relativistik nuqtayi nazar esa til va tafakkur o‘rtasidagi yanada kuchli aloqani ta’kidlaydi. Bu nazarga ko‘ra, til inson idrokini shakllantiradi, dunyoqarashni aniqlaydi va hatto madaniyatni aks ettiradi. Masalan, turli tillarda mavjud bo‘lgan rang nomlari yoki ob-havo holatlarini ifodalovchi so‘zlar, ularni ishlatadigan jamiyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy merosni saqlovchi va jamiyatning qadriyatlarini ifodalovchi vosita sifatida ham qaraladi.

### 2. Lingvokulturologiyaning tarjimadagi roli

Tarjima jarayonida lingvokulturologik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki har bir til o‘ziga xos madaniyat, tarix va ijtimoiy tajribani aks ettiradi. Tarjimon nafaqat matnning leksik va grammatik tuzilishini, balki unda mujassam bo‘lgan milliy-madaniy

ma'nolarni ham chuqur anglab yetishi lozim. A. Nida (1964) tarjimini "madaniyatlararo muloqot vositasi" sifatida baholab, tarjimon manba va maqsad til madaniyatlari o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, faqat shakliy emas, balki dinamik ekvivalentlikka erishish muvaffaqiyatli tarjimaning asosiy sharti hisoblanadi.

P. Newmark (1988) esa madaniy komponentlarga ega birliklarni tarjima qilishda tarjimon oldida murakkab vazifa turganini qayd etadi. U madaniy realiyalar, an'analar, urf-odatlar va milliy ramzlar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda ko'pincha ma'no yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishini ta'kidlaydi. Shu bois tarjimon izohlash, moslashtirish yoki funksional ekvivalent topish kabi strategiyalardan foydalanishi lozim.

Maslova (1990) ta'kidlaganidek, lingvomadaniy birliklarni to'g'ri aniqlash va ularni ma'nosi, emotsional ohangi hamda pragmatik funksiyasini saqlagan holda tarjima qilish tarjima sifatini belgilovchi muhim omildir. Bunday birliklar ko'pincha milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni e'tibordan chetda qoldirish matnning ta'sirchanligini pasaytiradi.

Masalan, ingliz tilidagi Thanksgiving bayrami atamasi oddiygina "Shukronalik kuni" deb tarjima qilinsa, uning tarixiy ildizlari, diniy mazmuni va ijtimoiy ahamiyati to'liq ochilmaydi. Bu bayram AQSh madaniyatida oilaviy birlik, minnatdorlik va milliy an'ana ramzi hisoblanadi. Shu sababli tarjimon bu atamani izohli tarjima qilish yoki madaniy kontekstni qisqacha tushuntirish orqali o'quvchiga yetkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, lingvokulturologik yondashuv tarjimonda til bilimlari bilan bir qatorda madaniyatlararo kompetensiyani ham talab etadi. Aynan shu yondashuv tarjimaning mazmunan to'liq, pragmatik jihatdan mos va o'quvchi uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

### **3. Tarjimadagi lingvokulturologik muammolar tipologiyasi**

#### **3.1 Realialar (madaniyatga xos birliklar)**

Realialar – ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan, muayyan madaniy muhitda shakllangan va real yoki institutsional mazmunga ega bo'lgan til birliklaridir. Ular madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi va tarjimada ko'pincha lingvokulturologik yondashuvni talab qiladi. Tarjima jarayonida muammolar odatda ikki asosiy holatda yuzaga keladi: birinchisi, maqsad tilida shu birlik mavjud bo'lmagan hollarda; ikkinchisi, birlikning o'z denotatsiyasidan tashqari ramziy, ijtimoiy yoki emotsional ma'nosi mavjud bo'lganda. Bu holatlar tarjimaga murakkablik kiritadi va tarjimonni tanlovga majbur qiladi.

Tarjimonlar realialarni tarjima qilishda uchta asosiy strategiyani qo'llashadi. Birinchisi, manba matndagi atamani saqlab qolish bo'lib, bu usul tarjimada birlikning asl shaklini va madaniy xususiyatlarini saqlashga yordam beradi. Ikkinchisi, tushuntiruvchi izoh qo'shish bo'lib, bu strategiya orqali birlikning ma'nosi va konteksti o'quvchiga tushunarli tarzda

yetkaziladi. Uchinchisi esa, maqsad tilidagi funktsiyasi o‘xshash ekvivalent bilan almashtirish usuli bo‘lib, bunda birlikning ma‘nosi va funktsiyasi saqlanib, o‘quvchi uchun tushunarli shaklga keltiriladi. Har bir strategiyaning afzalliklari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ularning tanlovi matnning janri, maqsadi va auditoriyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarjimonlar matn janrini hisobga olgan holda turli strategiyalarni aralash tarzda qo‘llaydilar. Badiiy matnlarda estetik va emotsional qatlam muhim bo‘lgani sababli, tushuntiruvchi tarjima va izohlar ko‘proq ishlatiladi. Ilmiy yoki notiqiy matnlarda esa, aniqlik va terminologik moslikni saqlash muhim bo‘lgani sababli, manba atamasi saqlanadi yoki ekvivalentlar tanlanadi.

Shu tariqa, tarjimonning har bir tanlovi matnning asl mazmunini saqlash, madaniy xususiyati va o‘quvchining tushunarlilikiga bevosita ta‘sir qiladi. Realialarni to‘g‘ri aniqlash va mos strategiyalarni tanlash tarjimaning lingvokulturologik sifatini oshirish, matnning mazmuniy va kommunikativ yaxlitligini saqlash imkonini beradi. Shu sababli realiyalar tarjimadagi murakkab element sifatida doimo alohida e‘tibor talab qiladi va tarjimonning lingvokulturologik bilimlarini sinovdan o‘tkazadi.

### 3. 2 Pragmatik va diskursiv muommolar

Tarjimada pragmatik va matn bilan bog‘liq muammolar muhim ahamiyatga ega, chunki nutq mazmuni faqat til birliklari orqali emas, balki muloqot vaziyati, murojaat qilinayotgan shaxs va nutqning maqsadi bilan belgilanadi. J. Ostin (1962) va J. Syorl (1969) tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy harakatlar nazariyasiga ko‘ra, har bir nutq birligi muayyan maqsad va ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, tarjimada aynan shu maqsadni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Biroq turli madaniyatlarda odob-axloq me‘yorlari, bilvosita ifodalash usullari va nutq madaniyati bir-biridan farq qilgani sababli, nutqning asl maqsadi tarjimada har doim ham to‘liq yetkazilmaydi. Brown va Levinson (1987) qayd etganidek, ayrim tillarda iltimos, taklif yoki tanqid bilvosita shaklda ifodalansa, boshqa tillarda ularning bevosita ifodasi ijtimoiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Natijada tarjimada nutqning yo‘nalishi o‘zgarib, murojaat qilingan shaxs tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Shuningdek, T. van Deyk (1997) ta’kidlaganidek, matn mazmunini belgilovchi kontekst, oldindan taxmin qilinadigan ma’no va yashirin mazmun tarjimada yetarlicha hisobga olinmasa, matnning umumiy yaxlitligi buziladi. Shu bois tarjimada pragmatik va matn bilan bog‘liq omillarni inobatga olish lingvomadaniy yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

### 3. 3 Metafora va obrazli ifodalar

Metafora va obrazli ifodalar tilning madaniy va estetik qatlamini tashkil etuvchi birliklar bo‘lib, ular nutq mazmunini boyitadi va muayyan madaniy tafakkur uslublarini aks ettiradi. Metafora – bir tushunchani boshqa tushuncha orqali obrazli tarzda ifodalash vositasi bo‘lib, so‘zlarning ma‘nosini kengaytiradi va o‘quvchida nozik emotsional yoki tushuncha ta’siri

uyg‘otadi. Obrazli ifodalar esa so‘z yoki iboralarning bevosita ma’nosidan tashqari, qo‘shimcha ramziy yoki his-tuyg‘u ma’no berish orqali nutqni jonli va mazmunli qiladi.

Tarjimada metafora va obrazli ifodalarni to‘liq va to‘g‘ri yetkazish ko‘pincha murakkablik tug‘diradi. Muammo shundaki, har bir madaniyatda metaforalarning mazmun tizimi va obraziy belgilar farq qiladi. Shu sababli, manba tilidagi obrazni so‘zma-so‘z tarjima qilish uning asl ma’nosini yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi mumkin. Tarjimonlar bunday holatni quyidagi usullar orqali hal qiladilar:

1. Asl obrazni saqlab qolish – metaforaning shakli va obrazli ma’nosi saqlanadi.
2. Tushuntiruvchi tarjima – metaforaning ma’nosi yoki ramziy mazmuni izoh bilan o‘quvchiga yetkaziladi.
3. O‘xshash ifoda bilan almashtirish – maqsad tilida mavjud bo‘lgan, o‘xshash obrazli ifoda tanlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlarda metaforalar va obrazli ifodalar estetik va emotsional qatlamni tashkil qilgani sababli, tushuntiruvchi tarjima va izohlar ko‘proq qo‘llanadi. Ilmiy yoki rasmiy matnlarda esa metaforalar kam ishlatiladi, ularni ko‘proq o‘xshash ifodalar bilan almashtirish yoki izoh berish amaliyoti qo‘llaniladi.

### **Xulosa**

Lingvokulturologiya va tarjima sohasidagi tadqiqotlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Til faqat ma’lumot yoki fikrlarni ifodalaydigan vosita emas, balki jamiyatning qadriyatlarini, tarixiy tajribasini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim madaniy resursdir. Shu bois, tarjimada faqat so‘zma-so‘z yoki leksik moslikka tayanish yetarli emas, balki lingvomadaniy birliklarni hisobga olib, matnning madaniy ohangdorligini va kommunikativ ta’sirini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjimon uchun murakkablik tug‘diradigan elementlar orasida realiyalar, metafora va obrazli ifodalar alohida o‘rin tutadi. Realizmlar ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lib, ularning asl mazmuni, ijtimoiy va ramziy ma’nosi tarjimada diqqat bilan saqlanishi lozim. Metafora va obrazli ifodalar esa matnga estetik va emotsional rang-baranglik beradi, ularning to‘liq yetkazilishi matnning estetik va kommunikativ yaxlitligini ta’minlaydi. Tarjimon ushbu elementlarni saqlash va moslashtirishda asl mazmunni saqlash, tushuntiruvchi yondashuv va o‘xshash ifodalar tanlash kabi strategiyalarni qo‘llashi lozim.

Shu bilan birga, tarjima jarayoni faqat lingvistik birliklar bilan cheklanmaydi; u madaniy kontekst, nutq vaziyati va adresatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Har bir tanlov matnning o‘quvchi uchun tushunarliqligi, madaniy mosligi va lingvokulturologik sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli tarjimonning bilimlari, madaniy tajribasi va ilmiy asoslangan yondashuvi yuqori sifatli tarjima yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologik yondashuv va tarjimada strategik tanlovlar matnning madaniy boyligi, estetik jihati va muloqot samaradorligini saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tarjimonning vazifasi faqat so‘zlarni almashtirish emas, balki manba va maqsad madaniyatlarini bog‘lab, matnni o‘quvchi uchun to‘liq, tushunarli va jonli shaklda yetkazishdan iboratdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maslova, V. A. (1990). Lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi. Moskva: Nauka.
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
3. Rashidova, N. (2020). The Arabic loanwords in education terminology: linguistic and statistical analysis. The Light of Islam, 2020(4), 138-146.
4. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press.
5. Nida, E. A. , Taber, C. R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill.
6. Katan, D. (1999). Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators. Manchester: St. Jerome Publishing.